



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Сирдарё вилояти

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko'chasi, 7-uy, Tel. +998 67
226-06-61, E-mail: sirdarya_davekspert@mail.ru, www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Gaimov Bo'riboy Xolbayevich

Sana: 29-12-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 85428

Obyekt nomi « Boyovut tumanidan Mirzaobod tumani Yangi xayot MFY Baxor qishlog'idagi d-57mm tabiiy gaz quvurni d-114 mm tabiiy gaz quvuriga almashtirish (rekonstruksiya)»

Buyurtmachi - HUDUDGAZTA'MINOT AJ

Bosh loyihachi - "Худудгаз Сирдарё" газ таъминоти филиали

Litsenziya AL-001845 19.06.2021 йил

Moliyalashtirish manbai - o'z mablag'lari va budjet

Bosh pudratchi - buyurtmachi tomonidan aniqlanadi

Qurilish turi qayta qurish(rekonstruksiya)

Murojaat raqami: № 72761

1. Loyihalash uchun asos

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2022-yil 2-noyabr №635 qarori "Samarkand, Jizzax, Sirdaryo va Xorazm viloyatlari aholisining turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"
- 1.2. Mirzaobod tumangaz tomonidan taqdim etilgan Nuqson dalolatnoma №7 1.07.2022y
- 1.3. "Hududgaz Sirdaryo" gaz ta'minoti filiali tomonidan tastiqlangan Loyihalash uchun texnik topshiriq 2022-yil.
- 1.4. O'zbekiston temir yo'llari AJ tomonidan berilgan 2022 yil 23 iyun №1037 TEXNIK SHART.
- 1.5. «Hududgaz Sirdaryo» gaz ta'minoti filiali tomonidan berilgan 2022 yil 15 noyabr 12/589 sonli TEXNIK SHART.
- 1.6. Loyiha smeta hujjatlari ishlab chiqish uchun 9.08.2022 yildagi № 01/105 son shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

- 2.1. "Hududgazta'minot" AJ "Hududgaz Sirdaryo" gaz ta'minoti filialining "Shaffof qurilish" MAT orqali qilingan 16.11.2022 yildagi 72761 - sonli murojaati

2.2. Buyurtmachining 16.11.2022 yildagi 36-01-13-137/2484-sonli xati.

2.3. Ishchi chizmalar. Prodolniy profil.

2.4. Smeta hujjatlari. Smeta qiymati – 385 464 418 sum(QQS 15% bilan - 364 167 266 so'm).

2.5. Tushuntirish xati

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Boyovut tumanidan Mirzaobod tumani Yangi xayot MFY Baxor qishlog'idagi d-57mm tabiiy gaz quvurni d-114 mm tabiiy gaz quvuriga almashtirish (rekonstruksiya)

smeta loyihasi "Hududgaz Sirdaryo" gaz ta'minoti filiali tomonidan 2022 yilda ishlab chiqilgan.

3.2. Tabiiy gaz tarmogiga ulanish joyi: Boyovut tumani Yangiobod MFY hududidagi yuqori bosimli gaz taqsimlash moslamasi chiqish gaz quvuriga ulanishi ko'zda tutilgan. p - 3,0 - 6,0 kgs/sm². D159 mm.

Loyihada diametri d114 x 4 mm va d114 x 5 mm bo'lgan yuqori bosimli gaz quvuri tortish ishlari ko'zda tutilgan. Tarmoqning umumiy uzunligi - 522 m. Gaz quvuri yer usti va yer ostidan tortilgan.

Gaz quvuri er ustidan 1 m balandlikda metal tayanchlarda, avtomobil yo'l bilan kesishgan qismida er ustidan 5m, 6 m balandlikda tortish ko'zda tutilgan. Metal tayanlar - diametri d114x4mm, 159x4 mm bo'lgan quvurdan. Temir yo'l bilan kesishgan joyda prokol usulda tortish ishlari ko'zda tutilgan.

Loyihada yer osti gaz quvuri "yuqori mustahkamlangan bitum -polimer" o'rta bosim turiga muvofik izolyatsiya bilan tortish ko'zda tutilgan. Protektor 2 dona xam ko'zda tutilgan.

Smetada gaz quvurining mustahkamligi va zichligi uchun sinov ishlari amalga oshirish ko'zda tutilgan.

4. Loyihalana yotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

yuqori bosimli gaz quvuri tortish ishlari

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

4.1. "Hududgaz Sirdaryo" gaz ta'minoti filiali tomonidan 2022 yilda tasdiqlangan loyihalash uchun texnik topshiriq

4.2. Smeta xujjatlari buyurtmachining talab va takliflarisiz taqdim etildi.

4.3. Proekt tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan(prokol usul uchun)

4.4. Smeta hujjatlari va qiymatlari buyurtmachi bilan kelishilgan,

4.5. Buyurtmachi smetani tasdiqlashdan oldin barcha tegishli tashkilotlar bilan kelishishi va qurilish montaj ishlarini bajarilishini malakali mutaxassis ajratgan holda to'liq nazoratga olishi lozim hamda "Mirzaobodtumangaz" gaz ta'minoti bo'limida ro'yxatdan o'tkazilishi shart.

6. Ekspertiza natijalari.

5.1. Dastlab taqdim etilgan smeta qiymati - 385 464 418 so'm.

Lokal hulosadan keyin taqdim etilgan smeta qiymati - 384 694 562 so'm.

Smeta hujjatlarini boshlang'ich narxini shakillashtirish, Sirdaryo viloyat xududida ishchilarni ish xaqqi 1 kishi/soat 16 925,22 so'm (katalog 2-chorak 2022yil), pudratchining boshqa xarajatlari 17,27%, qurilish materiallarning narxi katalog, bozor va birja narxilari asosida qabul qilingan.

Smeta hujjatlarini o'rganish jarayonida ba'zi qurilish materiallari narxi o'zgarishi hisobiga ob'yekt bahosi 48 401 055 so'mga kamaytirildi (mashina mexanizmlar harajatlari 9 811 164 so'm, qurilish materiallari tashish harajatlari 5% bilan - 21 299 055 so'm /quvur narxilari Toshkent truba zavodining 2022 yil prays-varag'i/, smeta qiymatida omborxonada saqlash harajatlari hisobga olinmadi - 3 486 785 so'm, pudratchining boshqa xarajatlari 17,27% qo'llanildi - 5 974 549 so'm, buyurtmachining boshqa sarf - xarajatlari - 1 746 126 so'm) buyurtmachining boshqa sarf - xarajatlari, QQS 15% bilan birgalikda 336 293 507 so'mga belgilandi.

1. Qurilish montaj ishlarini amalga oshirish maxsus litsenziyaga ega bo'lgan korxonalar tomonidan bajarish, montaj ishlari boshlanishi oldidan "Hududgaz Sirdaryo" gaz ta'minoti filiali bilan kelishish va filial nazorati ostida amalga oshirish tavsiya etiladi.
2. Tayanch va quvur oralig'ida elektrdan ajratuvchi rezinali himoya qoplama o'rash ko'zda tutilsin.
3. Yer usti gaz quvurlarini tashqi muhit (atmosfera) ta'siridan zanglashdan xomaki va 2-marta moyli bo'yoq bilan bo'yash orqali ximoya qilish tavsiya etiladi.

5.2. Smeta hujjatlariga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy harajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

5.3. Buyurtmachi smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim. (Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari, Avtomobil yo'llari boshqarmasi, Obodonlashtirish boshqarmalari ...)

5.4. Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan buyurtmachi va pudratchining boshqa harajatlari miqdori bo'yicha shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi.

5.5. Buyurtmachiga Uzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020 yil 7 sentyabr 541-sonli "Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida" qaror ijrosini ta'minlash maqsadida smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda "ekologik xulosa" olish shart.

5.6. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

7. Xulosalar.

6.1. "Boyovut tumanidan Mirzaobod tumani Yangi xayot MFY Baxor qishlog'idagi d-57mm tabiiy gaz quvurni d-114 mm tabiiy gaz quvuriga almashtirish (rekonstruksiya)" ishlarini amalga oshirish bo'yicha tayyorlangan smeta hujjatlari kelgusida kelishish hamda tasdiqlash uchun tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachining boshqa xarajatlari bilan 336 293 507 so'mni tashkil etadi.

Shundan:

Qurilish montaj ishlari 15% QQS bilan - 316 742 480 so'm;

Qurilish montaj ishlari 15% QQS siz - 275 428 244 so'm;

Buyurtmachining boshqa sarf - harajatlari - 19 551 026 so'm .

6.2. Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnoma tuzishga asos bo'la olmaydi.

6.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.04.2021 yildagi 684-sonli Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-sonli qarori talablariga rioya etilgan holda, hamda ShNK 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'yektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

6.4. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan qurilish montaj ishlari narxi cheklangan qiymat hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

6.5. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25- moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579 - sonli qarorining 1 - ilova 3 - bob 29 - bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik xujjatlarning sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

Bosh mutaxassis: Toshbayev O'ktamjon Abdurayimovich